



FARG'ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 24 - fevral

58-11-164-Q/22

Furqat tuman hokimligi

Furqat tumani "G'uncha" MFY "Yaxshi niyat" massividan joylashgan 1/3-uyning 5 ta xonadonlarini Furqat tumani hokimligi balansiga olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 martdagi "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6186-sonli Farmoni hamda Farg'ona viloyati hokimining 2021 yil 17 martdagi 104-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda tumandagi uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolar, shu jumladan xotin-qizlarni ijara huquqi asosida vaqtinchalik joylashtirish uchun uy-joylarni sotib olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 martdagi "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6186-sonli Farmoni hamda Farg'ona viloyati hokimining 2021 yil 17 martdagi 104-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Furqat tumani "G'uncha" mahalla fuqarolar yig'ini "Yaxshi niyat" massividan "Sharq invest ta'mir" MChJ tomonidan qurilgan 1/3-uyning 2 xonali 5 ta, ya'ni 7, 14, 16, 22, 24-sonli xonadonlari Furqat tumani hokimligi tomonidan 2021 yil 24 dekabrdagi 2/2021-sonli shartnomaga asosan sotib olinganligi munosabati bilan Furqat tumani hokimligi balansiga o'tkazilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi A. Sayidovga hokimlik balansiga qabul qilingan mazkur uylarning kadastr pasportlarini shakllantirish va davlat ro'yxatidan o'tkazishda sarflanadigan mablag'larni qonunlarda belgilangan

tartibda ajratilishini ta'minlash topshirilsin.

4. Kadastrlar palatasi tuman filiali (A.Jaloldinov) yuqorida qayd etilgan uylarni davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinnbosari R.Xamdamov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Ж.Жуманов